

"YUSUF VA ZULAYHO" TURKUMIDAGI QISSALAR**Omonova Zilola***Farg'ona davlat universiteti
filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi***Annotatsiya**

Ushbu maqolada "Yusuf va Zulayho" turkumidagi asarlar va ulardagi farqli, munozarali jihatlar haqida so'z boradi. Nosiriddin Rabg'uziyning va Qul Alining shu turkumdagi qissalari bilan tanishasiz. Shu bilan birgalikda "Yusuf" surasini nima uchun ahsan ya'ni eng yaxshi sura deb atalishini sabablarini ham bilib olasiz.

Kalit so'zlar: "Qissayi Yusuf", "Yusuf", "Ibtido", sharq adabiyoti, "Ahsan ul-qasas", tush.

"Qissayi Yusuf" yoki "Yusuf" qissalari hamda "Yusuf va Zulayho" dostonlari va shu turkumdagi asarlar Sharq xalqlarida ko'p tarqalgan. Shu bilan birgalikda bu dostonlarning variantlari ko'p.

"Yusuf" qissasi ilk bor Musoning "Ibtido" kitobida uchraydi. Bu kitob miloddan oldingi 2-ming yillikning o'rtalarida paydo bo'lgan. "Ibtido"da bu asar "Yusuf qissasi" yoki "Yusuf va Zulayho" nomi ostida berilmagan bo'lsa ham, 37- bobda Yusuf bilan bog'liq voqea boshlanadi va Yusufning vafot etishi bilan "Ibtido" kitobi yakunlanadi. "Ibtido"dagi bu qissa keyinchalik Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqaladi. Hozirda Sharq adabiyotida yuzdan ortiq Yusuf haqidagi qissalar va "Yusuf va Zulayho" dostonlari mavjudligi aytiladi. "Yusuf" turkumidagi qissalar "Yusuf va Zulayho" dostonlariga qaraganda avval paydo bo'lgan. "Yusuf" turkumidagi ilk nasriy va she'riy asarlar O'rta Osiyo adabiy muhitida milodiy 4-6- asrlardayoq paydo bo'lgan edi. Vahob ibn Munabbih, ibn Abdulla o'zlarining "Qisasul-anbiyo" asarlarida Yusuf bilan bog'liq voqealarga ko'p o'rin berganlar. Tabariy ko'p jildli "Tafsir"ida ham Yusuf syujetiga maxsus to'xtalgan. Abu Nosir (mil.1082) Balx shahrida Qur'oni Karimdagi "Ahsan ul-qasas"ni (ya'ni Yusuf surasi) adabiy jihatdan qayta ishlab, " Anas ul-muridin" asarini yaratgan. Bu asarning turkiycha tarjimasi ham bor.

Nosiriddin Rabg'uziy "Qissasi Rabg'uziy" asarida "Yusuf" qissasini nima sababdan "Ahsan" (eng yaxshi) qissa deb atalishini to'qqizta sababini keltiradi. Birinchisi: Qur'on ichidagi hamma qissalardan kattaroq, foydasi ziyodaroq qissa bo'lgani uchun. Ikkinchisi: bu qissa boshidan oxirigacha qirq yil (ba'zi manbalarda sakson yil) davom etgani uchun. Uchinchisi: boshqa qissalar turli suralarda keldi, ammo Yusuf qissasi to'laligicha bir surada keldi. To'rtinchisi: boshqa qissa voqeotlari yod kishilar orasida kechadi. Bu qissa esa ota-ona va birodarlar orasida kechgani tufayli ham eng yaxshi qissa deyiladi. Beshinchisi: bu qissada ozodlikdagi va

bandilikdagi holatlqr borligi uchun. Oltinchisi: Yusufning qarindoshlari bilan yaxshi muomalada bo'lgani, ularning jafosiga sabr qilgani uchun. Yettinchisi: bu qissaning avvali ham, o'rtasi ham, oxiri ham tush bo'lgani uchun. Sakkizinchisi: bu qissa ishq bilan tamom bo'lgani bois. To'qqizinchisi: Rasul alayhissalom dedilarki, kimki o'n baloga yo'liqsa, o'n surani o'qisin. Agar-ki, bu o'n balolar mendan nari bo'lsin desa, "Yusuf" surasini o'qisin. Negaki, bu o'n balolar hammasi "Yusuf" surasida bordir.

Yusuf voqeasiga bag'ishlab yozilgan birinchi badiiy asar Abulqosim Firdavsiyning (934-1020) "Yusuf va Zulayho" dostonidir. Keyingisi Abdurahmon Jomiyning (1314-1492) shu nomdagi asaridir.

Turkiy adabiyotda ilk bor Yusuf syujeti asosida yaratilgan badiiy asar 13-asrda yashagan Qul Alining "Qissayi Yusuf" dostonidir.

Voqealar rivojiga o'tadigan bo'lsak, Nosiriddin Rabg'uziy va Qul Alining "Yusuf" qissalarini farqli, munozarali jihatlarini solishtiramiz. Yoqub alayhissalomning olti xotini, o'n ikki o'g'li bor edi. Yusuf o'n birinchi o'g'il edi. Yusuf yetti yoshga kirganda tush ko'radi: O'n bir yulduz, quyosh va oy yerga tushib, Yusufga sajda qiladilar. Yusuf bu tushni otasiga aytib beradi. Otasi: "Ey Yusuf, tushlaring juda xayrli erur, uni birodarlaringga aytmagil, senga dushman bo'lib qoladilar",- deydi. Bu so'zlarni "Qissasi Rabg'uziy" da Rubilning onasi Qamar eshitib turgani, borib o'g'liga aytgani, u esa akalariga bildirgani yozilgan bo'lsa, Qul Alining "Qissayi Yusuf"ida bu tushni Yoqubning qizi akalariga yetkazgani yoziladi. Yusufni akalari quduqqa tashlab, otalarining oldiga Yusufni bo'ri yeganini va Yusufning ko'ylagini bitta qo'yni o'ldirib, o'shaning qoni bilan belaganini Rabg'uziy yozgan bo'lsa, Qul Ali esa Yusufning akalari eshki qoniga bo'yalgan kiyimni otalariga ko'rsatganini yozadi. Endi Yusufni quduqdan chiqargan "Qissasi Rag'uziy"da Malik Za'r degan podshohning qullari Bashir va Bushro keltirilgan bo'lsa, "Qissayi Yusuf"da savdo safaridan qaytayotgan karvon boshlig'i Malik Tojir Yusufni quduqdan chiqarib, uni Misrga olib ketgani bayon qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, "Yusuf va Zulayho" qissasi- sabr, muhabbat va iymon haqidagi doston. U insonni poklanishga, to'g'ri yo'lni tanlashga, har qanday sinov oldida sinmaslikka o'rgatadi. Shu sababli bu qissa har bir avlod uchun ibrat manbai bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. -Toshkent:Sano-stabndart, 2017.
2. Nosiriddin Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy.-Toshkent:mutolaa, 2024.
3. www.ziyouz.com kutubxonasi